ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA BOSH SOMALI METAFORALAR TAHLILI.

Jololova K.F
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
Qiyosiy tilshunoslik lingvistik tarjimashunoslik (turk tili) 1- kurs magistranti
Ilmiy rahbar: F.f.d., prof. Usmanova Sh.R.

Annotatsiya

Metaforalar inson tafakkuri va tilining ajralmas qismidir. Ular nafaqat san’atkorona ifoda vositasi, balki kundalik muloqotda, dunyoni idrok qilishda va ma’no yaratishda muhim ahamiyatga ega. Har bir til va madaniyat o‘ziga xos metafora tizimiga ega bo‘lib, bu tizim orqali o‘sha madaniyatning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, "bosh" komponentli metaforalar turkiy tillar, xususan, turk va o‘zbek tillarida muhim o‘rin tutadi. Mazkur maqolada turk va o‘zbek tillaridagi "bosh" komponentli metaforalarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

"Bosh" so‘zi inson tanasining muhim qismi bo‘lib, ko‘p tillarda markaziy semantik va ma’naviy yukga ega. Bu so‘z ko‘pincha liderlik, boshqaruv, mas’uliyat, markaz va yo‘nalish kabi tushunchalar bilan bog‘liq turli xil metaforik ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Turk va o‘zbek tillarida bu so‘zning metaforik foydalanishlari ma’lum darajada o‘xshash bo‘lsa-da, har ikki tilda o‘ziga xos jihatlar ham mavjud. Ushbu maqolada bu o‘xshashlik va farqliklar lingvistik va madaniy jihatdan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: metafora, somatik metafora, bosh komponenti, o‘zbek tili, turk tili, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, semantika.

AN ANALYSIS OF THE MAIN SOMALI METAPHORS IN TURKISH AND UZBEK.

Jololova K.F
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES
Comparative linguistics linguistic translation (Turkish language) 1st year graduate student
Scientific leader: F.f.d., prof. Usmanova Sh.R.

Annotation

Metaphors are an integral part of human thought and language. They are not only an artistic means of expression, but also important in everyday communication, perception of the world and the creation of meaning. Each language and culture has its own system of metaphors, through which the mentality, values and worldview of that culture are manifested. In this sense, metaphors with the "main" component occupy an important place in Turkic languages, in particular, Turkish and Uzbek. In this article, a comparative analysis of "head" component metaphors in Turkish and Uzbek languages is carried out.

The word" head " is an important part of the human body and has a central semantic and spiritual burden in many languages. The word often embodies a variety of metaphorical meanings related to concepts such as leadership, management, responsibility, center, and direction. While the metaphorical uses of the word are to some extent similar in Turkish and Uzbek, both languages also have distinct aspects. This article explores these similarities and differences linguistically and culturally.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Keywords: metaphor, somatic metaphor, head component, Uzbek language, Turkish language, comparative analysis, linguoculturology, semantics.

Kirish

Metafora, madaniyatlar va jamiyatlarning o‘ziga xos fikrlash tarzini aks ettiruvchi muhim unsurlardir. Metaforalar tilshunoslikda muhim rol oynaydi, chunki ular tilning semantik tuzilishini va ma‘naviy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Metaforik tasvirlar, murakkab tushunchalarni oddiy va aniq shaklda ifodalash imkonini beradi, bu esa tilni boyitadi va kommunikatsiya jarayonini samarali qiladi.

“Metafora- biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma‘lum bir boshqa obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha” deb ta‘riflaydi Jhon Stephen.[1]

Nutqimizda eng keng tarqalgan va kop qo’llaniladigan ma’no ko’chish usuli bu metaforadir.

Metaforalar tilni boyitadi, fikrlarni yanada tushunarli va ta'sirchan qiladi. Ular mantiqiy aloqalar o'rnatish orqali murakkab tushunchalarni soddalashtirib ifoda etish imkonini beradi. Shuningdek, metaforalar madaniyat va ijtimoiy kontekstni ham aks ettiradi, chunki ular jamiyatning dunyoqarashini, qadriyatlarini va tajribalarini ifoda etadi.

Metafora [yun. metaphora – ko‘chirish, ko‘chim] ad. so‘z yoki iborani o‘xshashlik yoki o‘xshatishga asoslangan ko‘chma ma’noda ishlatish va shunday ma’noda ishlatilgan so‘z yoki ibor.[2]

Yuqoridagi ta’rifdan ta'rifdan kelib chiqib, metafora tilshunoslikda muhim rol o‘ynaydi, chunki u so‘zlar va iboralar orqali yangi ma'nolarni yaratishga imkon beradi. Metaforalar orqali biror tushunchani yangi kontekstda ko‘rsatish, uning qiyofasini va mazmunini boyitadi. Bu jarayon, jumladan, ijodiy tafakkur va tilning estetik jihatlarini rivojlantiradi.

Metafora haqida gapirganda ingliz tilshunoslari Jeorj Lakoff va Mark Jonson tarafidan olib borilgan izlanishlarni ta’kidlab o’tish jozi. Ularning “Metaphor we live by” kitobida metaforalarni faqat adabiy janrning yoki san’atning qismi emas balkim kundalik hayotimizda qo’llaniladigan til vositasi sifatida tahlil qilganlar. “ Metafora faqat so’zlarni ifodalash vositasi emkas balkim insonlarning dunyoqarashi tushunchalari va hissiyotlari bilan bog’liq. Ularning asosiy g’oyasi shundan iboratki, ko’plab abstrakt tushunchalar masalan vaqt his tuyg’ular konkret narsalar va faolioyatlar orqali “ xaritalanadi” yoki “tanlanadi” , bu esa metafora orqali namoyon bo’ladi[3].

Metafora til orqali murakkab va abstrakt tushunchalarni anglashimiz uchun muhim vositadir. Ular o‘xshashliklar va analogiyalarni taqdim etish orqali bizning tafakkurimizni kengaytiradi, murakkab fikrlarni soddalashtirib, ularni yanada tushunarli qiladi. Masalan, iqtisodiy tushunchalarni "bozor raqobati" yoki "pul oqimi" kabi metaforalar yordamida ifodalash, bu jarayonlarni yanada yaqqol va aniq ko‘rsatadi.

Shu bilan birga metaforalar madaniyatning aks-sadosi sifatida ham xizmat qiladi. Har bir madaniyatda o‘ziga xos metaforalar mavjud bo‘lib, ular jamiyatning qadriyatlari, an'analari va e'tiqodlarini aks ettiradi. Metaforalarning konteksti, ularning kelib chiqishi va qo‘llanilishi orqali, biz turli madaniyatlar va ularning dunyoqarashlari haqida ko‘proq ma'lumot olamiz.

---

[1] Nilufarxon Sobirova, Zeboxon Nazirova O‘ZBEK TILIDA MA’NO KO'CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ,3(4), April, 2023 y. –B. 961

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. - Toshkent.: G‘.G‘ulom ,2023. B-178.

[3] Gearge Lakoff. Mark Johnsen Metaphors We Live By. – Chicago.: University of Chicago Press, 1980.193p.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

So‘zlarning ko‘chma ma’noda ifodalanishi va ularning qo‘shimcha ma’nolari haqida ko‘plab o‘zbekistonlik tilshunoslar, jumladan, professor Sh. Rahmatullaev, R. Yunusov, professor M. Mirtojiev, I. Shukurov, Z. Tohirov va D. Xo’jaeva chuqur ilmiy tadqiqotlar olib bordilar.

Somatik metaforalar ma’no ko‘chish holatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ular inson tanasi, jismoniy harakatlar va sezgilarga asoslangan holda til va tafakkur tizimida qanday metaforik o‘zgarishlar yuz berishini tushunishga yordam beradi. Somatik metaforalar ko‘pincha inson tanasining turli qismlari, hissiyotlar va harakatlari bilan bog‘liq bo‘lib, abstrakt tushunchalarni ifodalashda ishlatiladi

Soma leksikasi (yunoncha "soma" - "tanasi") har qanday tilning universal leksik guruhlaridan biri bo'lib, dunyo tilshunoslari tomonidan solishtirma-tarixiy va lingvokultural tadqiqotlarda eng ko'p o'rganiladigan obyektdir. Odatda, bu leksika har qanday tilning leksik-tarkibiy tizimida birinchi o'rinda ajratiladi.

Somatizmlar - inson yoki hayvon tanasining qismlarini anglatadigan ismlar. Somatik leksika deb, inson tanasi yoki hayvon tanasi qismlarini ifodalaydigan so'zlardan tashkil topgan birliklar tushuniladi. Ushbu termin biologiya va tibbiyotda "inson tanasi bilan bog'liq bo'lgan narsalar" ma'nosida ishlatilishi mumkin .

XX asrning oxiridan XXI asrning boshigacha tilshunos olimlar tomonida aynan somatik leksikaga bo’lgan qiziqish ortib ular bilan aloqador leksik gramatik birliklar o’rganila boshlandi..

«Soma» atamasi ilk marotaba lingvistikaga F. Vakk tomonidan kiritilgan. U Eston tilidagi tana qismlarini ifodalovchi frazeologizmlarni o‘rganish jarayonida bunday atamalarni «soma» deb nomlagan. Uning xulosasiga ko‘ra, bu frazeologizmlar eng qadimgi qatlamlardan biri bo‘lib, Eston tilidagi frazeologizmlarning eng ko‘p ishlatiladigan qismidir.[4]

Soma atamalari – inson tanasining qismlarini ifodalovchi so‘zlar ko‘p jihatdan tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarining maxsus jihati esa, bu atamalarning hissiyotlarni metaforik ifodalashdagi imkoniyatlarini aniqlashdir (masalan, "yuragi notinch ", "boshi g’ovlamoq, ").

Inson tanasining a’zolarini turli xil tasniflash va guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, tashqi ma'lumotlarni qabul qiladigan organlar - bu ko'zlar, quloqlar, burun. Bular bajargan vazifada qo’l, oyoq ishtirok etmaydi. Til esa ma'lumotni uzatish uchun javobgar organ hisoblanadi. Shuning uchun, til haqida gapirganda, u gapiruvchidan ma'lumot olishni yoki ma’lumot uzatishni anglatadi. Bu organlar bilan yasalgan metaforalar ham shu a’zo bajargan vazifalarini ifodalaydi. Masalan, "tilida qandi bor" “tili zahar", "tili shirin” “tilini tishlab qoldi" kabi metaforalar va metaforik iboralar nafaqat so'zlovchining sifati, balki uzatilayotgan ma’lumot haqida ham xabar beradi.

Bosh inson tanasining eng muhim organlaridan biri bo'lib, u insonning aqliy jarayonlari va holatiga javob beradi. Bosh kontsepti turk va o’zbek maqollarida, iboralarida eng ko'p tarqalgan kontseptlardan biridir.

O’zbek tili izohli lug’atdai bosh so’zi uchun qo’ydagi ta’rifni berilgan: bosh- Tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla[5].

[4] Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском языке. Dis. Kan. Filol. Nauk Tallin, 1964

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. - Toshkent.: G‘.G‘ulom ,2023. B-178.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

İnsan ve hayvanlarda beyin, göz, kulak, burun, ağız vb. organları kapsayan, vücudun üst veya önünde bulunan bölüm; kafa, kelle, ser [6]

Turk va o'zbek tillarida bosh metaforalari o‘rtasidagi o‘xshashliklar, ikki til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Bosh komponentli metaforalarning ikki tildagi ifodalagan ma’nolarini ko’rib chiqamiz.

1. “Bosh” komponentining asosiy semantik xususiyatlari

"Bosh" so‘zining asosiy ma’nosi inson tanasining yuqori qismi, ya’ni miyani va asosiy sezgi organlarini o‘z ichiga olgan qismidir. Shu sababli, "bosh" so‘zi nafaqat jismoniy, balki abstrakt ma’no qatlamlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Bu so‘zning metaforik jihatlari quyidagi asosiy semantik xususiyatlarga ega:

- **Markaziyat:** Bosh inson tanasining markaziy qismi sifatida qaraladi. Bu markaziyat ko‘pincha liderlik va boshqaruv bilan bog‘lanadi. Bosh vazir, bosh shifokor.
- **Boshqaruv:** Bosh miyani o‘z ichiga olganligi sababli, u fikrlash, qaror qabul qilish va boshqarish bilan bog‘liq semantik yukni oladi. Bosh bo’lmoq, bosh qotirmoq
- **Yo‘nalish:** Bosh tananing yo‘nalishini belgilaydigan qism sifatida qaraladi, bu esa uni yo‘nalish va maqsad bilan bog‘laydi. Daryoning boshi, ko’chaning boshi.

Turk va o‘zbek tillari bir oilaga mansub bo‘lgani sababli, ularning metaforik tizimlari ko‘plab o‘xshashliklarga ega. "Bosh" komponentli metaforalarda ham bu o‘xshashliklar yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyida turk va o‘zbek tillarida keng tarqalgan "bosh" komponentli metaforalar va ularning umumiy jihatlari keltiriladi:

1.1 Bosh lavozim va kata mansabni ifodalovchi. O'zbek tilida bosh vazir, bosh prokuror, bosh hisobchi va bosh shifokor bosh rejisyor kabi bosh so’zi orqali ifodalangan metaforala mavjud. Bu so‘zlar, yuqori lavozimdagi shaxslarni tasvirlaydi va ularning muhimligini ta’kidlaydi. Turk tilida esa bu tushunchalar "Başbakan", "başhekim", "başsavcı" “ başkahraman” “ Başyonetmen” shaklida ifodalanadi.

1.2 Bosh somasi bilan ifodalanga metaforalar boshlanish, biror narsaning hodisaning avvalini ifodalab keladi. Boshlanish tushunchasi, har bir voqea, hodisa yoki jarayonning muhim jihatini tashkil etadi. Bunday ma’noli metaforalarga turk tilida hafta başı, ay başı, yılbaşı, satır başı kabi so‘z birikmalarini misol qilsak boladi. O'zbek tilida esa, voqea, hodisaning, biror muddat yoki faslning, asar, matn va sh.k. ning boshlanish joyi, payti, avvali, muqaddimasi kabi ta'riflar, boshlanish tushunchasining kengroq ma'nosini ochib beradi. Bu yerda "asar boshi", "yil boshi", "ishning boshi", "so‘zning boshi" va "sentyabr boshi" kabi misollar yordamida, har bir jarayonning avvalgi qismi va boshlanishi haqida fikr yuritiladi.

Masalan, "**to‘yning boshi**" — bu to‘yning rasmiy boshlanishidan oldingi davrni anglatadi.

Shu bilan birga bosh so’zi ba’zi otlar bilan birikib, shu ot orqali ifodalangan narsaning o‘zini yoki u o‘rnashgan joyni, yon-atrofini bildiradi. Turk va O'zbek madaniyati va tilida ham "bosh" so'zi, bir obyekt yoki joyning atrofini yoki yonini ifodalash uchun qo’llaniladi. Masalan o’zbek tilida tandir boshi, o’choq boshi, buloq boshi, anhor boshi bozor boshi turk tilida havuz başı, ocak başı, sofra başı, pınar başı kabi metaforalarni misol keltirishimiz mumkin. **“**Güzel bir sonbahar havasında şair, **havuz başına** uzanır gibi oturmuş, güneşleniyordu." - **Ahmet Kabaklı**

[6] https://sozluk.gov.tr/

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

"Nigor oyim **o‘choq boshida** ovqat pishirish bilan mashg‘ul edi" A. Qodiriy Mehrobdan chayon.

Biroq, bu qo'llanilish, turk tilidagi muqobillaridan biroz farqli kontekstga ega. Ayniqsa, “tandir boshi", "bozor boshi" kabi iboralar, nafaqat joyni, balki bu joylarning madaniy va ijtimoiy funksiyalarini ham aks ettiradi. Turk va o’zbek tillarida bozorboshi (pazarbaşı**)** so’zi bozor boshqaruvchisi ma’nosida qo’llaniladi. Biroq, o’zbek tilida bu so’z nafaqat bozorkom balkim bozorning asosiy bosh qismi, maydoni degan ma’noga ega.[7]

Yuqorida berilgan misollardan tashqari bosh so’zo bilan quydagi ma’noli metaforalarni ko’rishimiz mumkin

Turk tili	O’zbek tili
Önem veya yönetim bakımından ileride olan, en önemli, en üstün" anlamlarında: başçavuş, başhekim, başkent.	Ulkan, katta, asosiy: bosh darvoza, bosh sovrin, bosh maydon.
Arazide veya bir yerin en yüksek noktası: Dağın başı. Tepenin başı, merdiven başı.	. Cho‘ziq, davomli, bo‘yli narsalar, joy, maydonlarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi; shunday narsalarning ikki uchi dan, chekkasidan, tomonidan biri: Daryo boshi, ko’cha boshi, dala boshi
Kasaplık hayvanlarda ve bazı yiyeceklerde adet: Yirmi baş koyun. Üç baş soğan	Ba’zi o‘simliklarning kalla yoki chanoq shaklidagi hosili, mevasi: Bir bosh uzum, bir bosh karam. Topgan gul keltirar, top magan – bir bosh piyoz. Maqol
Ilk, birinci, önemli : başkadın, başbayan, başmekan,başkent	Eng oldingi, birinchi: bosh farzand, bosh xotin

Xulosa

Mazkur maqolada o‘zbek va turk tillarida keng qo‘llaniladigan "bosh" komponentli metaforalarning semantik va lingvokultural tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot davomida "bosh" so‘zining ikki til va madaniyatda qanchalik muhim va ko‘p qatlamli ma’nolarga ega ekanligi aniqlanib, uning lingvistik xususiyatlari va madaniy kontekstdagi o‘rni yoritib berildi.

Metaforalar, xususan, somatik metaforalar (tanaga oid metaforalar) nafaqat tilning boyligini ko‘rsatuvchi vosita, balki madaniyatning aks-sadosi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Bosh" komponentli metaforalar orqali tilshunoslikda fikrlarning ifodalanishi, jamiyatning qadriyatlari va an'analarini aks ettirish, shuningdek, turli til va madaniyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash mumkin. O‘zbek va turk tillarida "bosh" so‘zining ishlatilishi va semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu so‘z har ikki til uchun ham universal leksik birlik bo‘lib, bir vaqtning o‘zida har bir tilning o‘ziga xos madaniy va lingvistik xususiyatlarini ifoda etadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar til va madaniyatning boshqa sohalaridagi bog‘liqliklarni o‘rganishga, shuningdek, metaforalarning til va madaniyat rivojlanishidagi o‘rnini chuqurroq tushunishga yordam berishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, tilning inson tafakkuridagi o‘rnini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘zbek va turk tillaridagi "bosh" komponentli metaforalar madaniy va lingvistik o‘xshashliklarni aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi va ikki til o‘rtasidagi semantik o’xshashliklar va farqlarni yanada chuqurroq tadqiq qilish imkoniyatini beradi.

[7] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. - Toshkent.: G‘.G‘ulom ,2023. B-178.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. - Toshkent.: G‘.G‘ulom ,2023.
3. Mirtojiev, M., Yunusov, R., & Shukurov, I. (2005). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Vakk, F. (1995). Eston tilida tana qismlarini ifodalovchi frazeologizmlar. Tallinn: Estonian Academy of Sciences.
5. Sobirova, N., & Nazirova, Z. (2023). O‘zbek tilida ma’no ko‘chish usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 3(4), 961-bet.
6. Türk Dil Kurumu (TDK) Lug‘ati (onlayn). Büyük Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu rasmi sayti. https://www.tdk.gov.tr